

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi
№ MOE-XXI-2

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining
2024-yil "27" dekabr dagi
485- sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.



Oliy ta'lim muassasalarining o'quv ishlari bo'yicha prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshliqlari, dekan va o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini, kafedra mudirlari va o'quv ishlari bo'yicha mas'ul rahbarlar uchun

"TA'LIM SIFATI MENEJMENTI"

yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining

2024-vil "24" 12 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
dagi 12

Tuzuvchilar:

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyat rivojining ma’naviy asoslari” moduli: f.f.d., prof. M.M.Qahhorova, s.f.d., prof. O.Sirojov.

**“Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari” moduli: yu.f.d., prof.
V.R.Topildiyev.**

“Oliy ta’lim tashkilotlarida korrupsiya va manfaatlar to’qnashuvining oldini olish” moduli; yu.f.d., prof. B.I. Ismailov.

“Ta’lim menejering innovation faoliyati, kompetentligi, professionalligi” moduli: katta o’qituvchi R.J.Ishmukamedov, p.f.f.d., (PhD), dots. A.S.Djurayev.

prof. D.Irgasheva, t.f.n. dots, V.A.Karimova, tadqiqotchi H.Nomozov.

i f.f.d., dots, A.X.Xolov

“Oliy ta’lim sifatini strategik boshqarish va rejalashtirish” moduli:
k.f.d., prof. A.Xolliqov.

“O‘qy ta’lim sifatini ta’minlash: xalqaro standartlar tabiili va milliy talriba” moduli: p.f.d, prof. B.Uamonov, i.f.d, prof. P.Nazarova.

"Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi va baholash" moduli: f.m.f.d., prof. Sh Nematov, PhD R.Ro'zmetov.

“Tadbiqkorlik universitetlarida ta’lim sifatini ta’minlash masalalari”
moduli: i.f.d., prof. R. Nurimbetov.

Taqrizchilar: p.f.d., prof. H.Oodirov

p.f.d., prof. F. Zakirova

*O'quv dasturi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqlaqa tayyirlan.*

(2024-yil " _____dagi _____-sonli bayonnomasi)

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "2020-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-14-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmonlari, 2024-yil 21-iyundagi "Aholi va davlat xizmatchilarining korupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-228-son, 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996-son, 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4391-sonli Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 797-son, 2024-yil 11-iyuldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur mazmunida yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari, oliy ta'lim tashkilotlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, ta'lim menejerining innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi, oliy ta'limni

boshqarishda raqamli texnologiyalar, boshqaruv psixologiyasi va liderlik masalalari qamrab olinadi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular tinglovchilarni oliy ta'lim sifatini strategik boshqarish va rejalashtirish, oliy ta'lim sifatini ta'minlash: xalqaro standartlar tahlili va milliy tajriba, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi va baholash, oliy ta'lim muassasasini strategik boshqarish va rejalashtirish, tadbirkorlik universitetlarida ta'lim sifatini ta'minlash masalalari bo'yicha zaruriy yangi bilim, ko'nikma va malakalarni hamda kompetensiyalarni o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi quyidagi o'quv modullaridan iborat:

- 1.1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyat rivojining ma'naviy asoslari.
- 1.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari.
- 1.3. Oliy ta'lim tashkilotlarida korruptsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.
- 1.4. Ta'lim menejeringing innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi.
- 1.5. Oliy ta'limni boshqarishda raqamli texnologiyalar.
- 1.6. Boshqaruv psixologiyasi va liderlik.
- 1.7. Oliy ta'lim sifatini strategik boshqarish va rejalashtirish.
- 1.8. Oliy ta'lim sifatini ta'minlash: xalqaro standartlar tahlili va milliy tajriba.
- 1.9. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi va baholash.
- 1.10. Tadbirkorlik universitetlarida ta'lim sifatini ta'minlash masalalari.

Kursning maqsadi va vazifalari

"Ta'lim sifati menejmenti" kursining maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'quv ishlari bo'yicha prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshliqlari, dekan va o'quv ishlari bo'yicha dekan muovinlari, kafedra mudirlari va o'quv ishlari bo'yicha mas'ul rahbarlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish asosida ularda ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali boshqarish malakalarini egallashlariga qaratilgan.

"Ta'lim sifati menejmenti" kursining vazifasi – oliy ta'lim muassasalarining o'quv ishlari bo'yicha prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshliqlari, dekan va o'quv ishlari bo'yicha dekan muovinlari, kafedra mudirlari va o'quv ishlari bo'yicha mas'ul rahbarlarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini o'zlashtirish, ta'lim muassasasida boshqaruv faoliyatini tashkil etish va olib borish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
- siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishini;
- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uning mohiyatini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;
- Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamlarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta'lim tizimida korruptsiya va korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
- O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" hamda "Innovatsion faoliyat to'g'risida" Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmuni va mohiyatini;
- "Yashil" madaniyatni shakllantirish masalalarini;
- ta'lim menejeri innovatsion faoliyatining funksiyalari, bosqichlari, shakllarini;
- innovatsion kompetentlik va uning o'ziga xos xususiyatlarini;

- ta'lim menejerining innovatsion faoliyatida kasbiy professionallik va uning tarkibiy qismlari, professionallikka erishish darajalari, ko'rsatkichlari, texnikasini;

- raqamlashtirish va raqamli transformatsiyaga kirish: asosiy ta'riflar, tushunchalar, maqsad va vazifalari;

- raqamli transformatsiyaning asosiy komponentlarini;

- murakkab infratuzilma va platformalarni;

- oliy ta'limni boshqarish axborot tizimi (HEMIS) va uning rolini;

- transformatsiyada raqamli texnologiyalarni;

- ta'limdagi sun'iy intellektning xususiyatlarini;

- ta'limda sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlarini;

- Katta ma'lumotlar (Big Data) va ilg'or analitikani;

- oliy ta'limda AR/VR texnologiyalari hamda raqamli egizaklarni;

- ochiq ta'lim resurslari (OER) va ulardan foydalanish litsenziyalarini;

- buyumlar interneti (IoT) va "Aqli" kampuslarni;

- bilimlarni sinash va baholashning aqli tizimlarini;

- boshqaruv jarayonini tashkil etishning psixologik omillarini;

- tashkilotda boshqaruv va menejmentning umumiy xususiyatlarini;

- rahbar va unga qo'yiladigan psixologik talablarni;

- boshqaruvda liderlik va rahbarlik uslublarini;

- oliy ta'limni boshqarishga tizimli tahlil asoslarini;

- tizim darajalari va ierarxiyalari nazariyasini;

- ta'lim jarayonida strategik qarorlar qabul qilish va farsaytning mazmunini;

- ta'lim tashkilotlar kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasini;

- kompleks va maxsus davlat akkreditatsiya tushunchasini;

- kompleks va maxsus davlat akkreditatsiya oid va ta'lim jarayonini tartibga soluvchi normativ hujjatlarini;

- ichki baholashni tashkil etish bosqichlarini;

- ta'lim tashkilotlar kompleks va maxsus akkreditatsiya qilishda ekspertlarga qo'yiladigan talablarni;

- ekspertlarning vazifalari va ularga qo'yiladigan talablarni;

- O'zbekiston Respublikasi hududida tan olinadigan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari va ularga qo'yilgan talablarni;

- ta'lim sifatini strategik boshqarishda innovatsion yondashuvlarni;

- oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini;

- strategik rejani amalga oshirish bosqichlari hamda monitoring qilish va baholashni;

- strategik boshqaruv tushunchasi va ahamiyatini;

- boshqaruvda zamonaviy tendensiyalarni;

- ta'lim sifatini oshirish strategiyalarini;

- tabirkorlik universitetlari rivojlanishi orqali milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuvini;

- akademik tabirkorlik ekotizimning tarkibiy elementlarini;

- akademik tabirkorlik subektlarining o'zaro xatti-harakatlari bazaviy modelini;

- akademik tabirkorlik institutini, bilimlar iqtisodiyoti va tabirkorlik universitetlari;

- tabirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni;

- OTMLar raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini;

- zamonaviy universitetlar modellari va funksiyalari, raqamli iqtisodiyotning oliy ta'limga bo'lgan talablarini;

- xalqaro ta'lim standartlari va oliy ta'lim tizimidagi global tendensiyalarni;

- xalqaro ta'lim tizimining asosiy standartlari: UNESCO, OECD, Bologna jarayoni va ECTS krediti tizimini;

- oliy ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tizimlar (QS World University Rankings, THE Rankings)larni;

- O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya imkoniyatlarini;

- dunyo oliy ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatli tajribalar (AQSh, Yevropa, Osiyo davlatlari namunasini);

- "Ilg'or muxandislik maktablari" faoliyatini;

- O'zbekiston oliy ta'limi uchun dolzarb yo'nalishlarni;

- ta'lim siyosati va strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro yondashuvlarni bilishi lozim.

Tinglovchi:

- O'zbekiston-2030" strategiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;

- O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;

- milliy ma'naviyat va qadriyatlar, yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari bilan ishlash;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;

- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;

- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rinishi, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini yoritib berish;

- zamonaviy ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi mazmuni va mohiyati, shakllanish bosqichlari, shakllarini ochib berish;

- ta'lim menejerining innovatsion faoliyatida kasbiy professionallik va uning tarkibiy qismlari, professionallikka erishish darajalari, ko'rsatkichlarini tahlil etish hamda texnikasini qo'llash;

- oliy ta'lim muassasasida o'zgarishlarni boshqarish va raqamli madaniyatni shakllantirish;

- bulutli infratuzilma (IaaS, PaaS, SaaS) va uni oliy ta'lim muassasalarida qo'llash prinsiplariga rioya etish;

- kiberxavfsizlik orqali ma'lumotlarni himoya qilish;

- zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt (AI) ning ahamiyatini ochib berish va baholash;
- boshqaruv faoliyatining psixologik jihatlarini tahlil etish;
- boshqaruv psixologiyasining mohiyatini ochib berish;
- boshqaruv usullarini qo'llash;
- boshqaruv samaradorligini ta'minlaydigan shaxs sifatlarini tavsifini amalga oshirish;
- tashkilotda jamoa va guruhlarini boshqarishning o'ziga xosligini tahlil qilish va baholash;
- guruhning samarali faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi omillarning psixologik tahlil etish;
- muzokara modellari, muzokara usullaridan foydalanish;
- tizim darajalari va ierarxiyalari nazariyasi: universitetda vertikal va gorizontial boshqaruv tuzilmasini tahlil qilish;
- ta'lim sifatini ta'minlashda strategik qarorlar qabul qilish va forsayt texnologiyalardan foydalanish;
- ta'lim tashkilotlari tomonidan ichki baholashni tashkil etish;
- zarur ma'lumotlarni olish, o'rganish, tahlil qilish va ichki baholash hisobotni tayyorlash;
- Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv hamda moliyaviy mustaqilligini ta'minlash;
- strategik maqsad va vazifalarni ishlab chiqish;
- amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlarni oliy ta'lim muassasasi va ish beruvchilar bilan ishlab chiqish;
- SWOT va PEST tahlillaridan foydalanish;
- tadbirkorlik universitetlarida sifatli ta'lim, innovatsion ekotizimni shakllantirish va rivojlantirish;
- ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibiga rioya qilish va baholash;
- ta'lim siyosati va strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro yondashuvlardan samarali foydalanish;
- ta'lim sifatini oshirish strategiyalarini amaliy ahamiyatini ochib berish;
- OTMning raqobatbardoshligini baholash mezonlariga rioya etish;
- ta'lim muassasalarini xalqaro standartlarga moslashtirish strategiyalaridan foydalanish;
- ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va oliy ta'limni moslashtirish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishlash;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o'zlashtirish;

- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yuklarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- me'yoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribalardan samarali foydalanish;
- ta'lim menejerining kasbiy professionalligi mazmuni va uni innovatsion faoliyatda (boshqaruvda, ishlarni NOT prinsiplari asosida tashkillashtirishda, xodimlar bilan ishlashda, shaxs va jamoaga ta'sir etishda) namoyon bo'lishini tahlil etish va baholash;
- ta'lim menejerining innovatsion faoliyatida aktyorlik va rejissyorlik elementlaridan foydalanish, ijodkorlik, novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash;
- raqamli transformatsiyada kontentning rolini yoritib berish;
- sun'iy intellektning asosiy xususiyatlarini baholash;
- raqamli kontentni yaratish, boshqarish va tarqatish;
- malaka oshirish kurslarini tashkil etishda mobil ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;
- rahbar faoliyatini psixologik tavsiflash;
- shaxsning individual-psixologik, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ajratish;
- shaxsning ijtimoiy-psixologik sifatlariga individual xususiyatlarning ta'sirini o'rganish;
- rahbarning shaxsiy sifatlarini baholash;
- boshqaruv muloqotining ilmiy-amaliy jihatlarini tahlil etish;
- boshqaruv usullarining psixologik xususiyatlarini o'zlashtirish;
- guruhdagi tarkibiy elementlar tahlilini amalga oshirish;
- guruhda axborot almashinuv jarayoni tahlil qilish;
- oliy ta'limni boshqarishda tizimli tahlil va tizimli yondashuvni qo'llash;
- ta'lim tashkilotining ichki baholashini tashkil etish, zarur ma'lumotlarni olish, o'rganish, tahlil qilish va ichki baholash hisobotini tayyorlash;
- ekspertlarni tanlash, o'qitish va sertifikatlash tizimidan foydalanish;
- xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan ta'lim dasturlarini akkreditatsiya qilish;
- kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish axborot tizimidan foydalanish;
- respublika ta'lim tashkilotlarining milliy reyting baholash tizimini yuritish;
- strategik reja ijrosini nazorat qilish va baholash;
- rejalashtirish jarayonida zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash;
- oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

- ta'lim sifatini oshirishda strategik rejalashtirishning rolini ahamiyatini ochib berish;
- tadbirkorlik universiteti modelidan foydalanish;
- oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, davlat interaktiv xizmatlari ko'lamini kengaytirish;
- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimini joriy etish;
- "Tadbirkorlik universiteti" modeliga transformatsiyalashuv jarayonida o'zgarishlarni boshqarish;
- tadbirkorlik universitetini umumiy tavsiflash;
- mehnat bozorini tahlilini amalga oshirish;
- xalqaro ta'lim aloqalari va hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish *malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiiq etish istiqbollari belgilash;
- yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhkama tashkil etish va ularni amaliyotda qo'llash;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlari asosida faning ishchi dasturini ishlab chiqish, amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;
- korrupsiyaviy xavf-xatrlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish;
- ta'lim menejering professionalligida talant, tajriba va javobgarlik birligi, diqqatini jalb etish usullarini egallash;
- muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya misollari va keyslar yaratish;
- onlayn-dasturlar va gibrid formatlarni boshqarishning eng yaxshi tajribalarini amaliyotga tadbiiq etish;
- ta'lim sohasida sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari aniqlash;
- oliy ta'limni boshqarish axborot tizimi (HEMIS) orqali ma'muriy va ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda oliy ta'lim muassasasi samaradorlik ko'rsatkichlarini monitoring qilish;
- boshqaruvda liderlik va rahbarlik uslublaridan samarali foydalanish;
- boshqaruv strategiyasini joriy etish va amalga oshirish;
- muzokaralardagi qiyinchiliklar, to'siqlar, mojarolar, manipulyatsiyalarni oldini olish;

- ta'lim tashkilotlari faoliyati reyting ko'rsatkichlari va ular bilan ishlash metodologiyasini o'zlashtirish, xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallash choralari ko'rish;
- ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish jarayonida ta'lim tashkilotlari to'g'risida tahliliy ma'lumotlarni to'plash, jarayondagi byurakratik to'siqlarni olib tashlash, korrupsiyani oldini olish, mutaxassislarining vaqti va yo'l xarajatlarini tejash hamda tezkor axborot almashish imkoniyatlaridan foydalanish;
- oliy ta'lim muassasalarining missiya va vazifalarini aniqlash;
- oliy ta'lim sifatini ta'minlashda strategik maqsadlar va vazifalarni belgilash;
- ta'lim sifatini oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalarida dual talimni tashkil etish metodlaridan samarali foydalanish;
- oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalari va dasturlarini ish beruvchilar talablari bilan integratsiyalash;
- Akademik spin-off, SPIN-OFF shaklidagi akademik tadbirkorlikning ustuvorliklarini aniqlash;
- an'anaviy OTMlarning "Tadbirkorlik universiteti" modeliga transformatsiyalashuv jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni tahlil etish va baholash metodlaridan foydalanish;
- xalqaro va milliy darajada ta'lim sifatini monitoring qilish;
- oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi xalqaro hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasasini o'quv faoliyatini rivojlanish strategiyasini shakllantirish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

"TA'LIM SIFATI MENEJMENTI" YO'NALISHI BO'YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSINING O'QUV MODULLARI VA ULARNING MAZMUNI

1.1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyat rivojining ma'naviy asoslari.

"Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va

orttirilgan tajriba: "O'zbekiston-2030" strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolati va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvinini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlar va ularning zaruriyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbir etish istiqbollari, "Yashil" madaniyatni shakllantirish masalalari.

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari.

Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O'zbekistonning o'rni, O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

1.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari.

Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Oliy ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarining turlari. Normativ huquqiy hujjatlar qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari. Oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar. Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim va tربيya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv yuklamlarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal hujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

Meyoriy uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish.

1.3. Oliy ta'lim tashkilotlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

Oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari.

Oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rinishi, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanilishi lozim bo'lgan xorij tajribasi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

1.4. Ta'lim menejerining innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi.

Ta'lim menejerining innovatsion faoliyati tushunchasi. Innovatsiyani ta'lim menejeri faoliyatida tugan o'rni, ahamiyati. Ta'lim menejeri innovatsion faoliyatining funksiyalari, bosqichlari, shakllari.

Innovatsion kompetentlik va uning o'ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi mazmuni va mohiyati, shakllanish bosqichlari, shakllari. Ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etish va boshqarishda xalqaro tajribalar. Innovatsion kompetentlik - innovatsion faoliyatning poydevori sifatida.

